



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA, IJTIMOY SHERIKLIK ASOSIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI.

Toshpulatova Shaxnoza Bobojonovna.

Samarqand viloyati, Narpay tumani,

Bo'ston mahallasida joylashgan 12-DMTT tarbiyachisi.

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy sheriklik prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish masalalari real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar asosida yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifatida ishlab chiqarish korxonalari cheklangan hududda faoliyat yuritayotgan yagona yirik xo'jalik subyekti — "OPTIMAL AGRO" MCHJ misolida ijtimoiy sheriklikning samarali modeli ilmiy tahlil qilinadi. Annotatsiyada dehqonchilik, sug'orish va paxta yetishtirish yo'nalishlarida faoliyat olib boruvchi mazkur MCHJda mavsumiy (bahor–yoz–kuz) bandlik va qish faslida yollanma ishchilarning vaqtincha ishsiz qolishi bilan bog'liq muammolar MTTlar faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy omil sifatida asoslab beriladi. Maqolada ijtimoiy sheriklikning ijtimoiy yo'naltirilganlik, manfaatlar uyg'unligi, uzluksizlik, barqarorlik va mas'uliyatli hamkorlik prinsiplari asosida MTT hamda "OPTIMAL AGRO" MCHJ o'rtasida tuzilishi mumkin bo'lgan hamkorlik mexanizmlari ilmiy jihatdan ochib beriladi. Xususan, mavsumiy bandlikka ega bo'lgan ishchilar farzandlari uchun maktabgacha ta'lim xizmatlaridan barqaror foydalanishni ta'minlash maqsadida ijtimoiy sheriklik shartnomalari, ijtimoiy buyurtma, homiylik va patronaj, shuningdek, korxona–MTT hamkorlik dasturlarini joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *MTT, ijtimoiy sheriklik, chekka hududlar, ishlab chiqarish korxonasi, "OPTIMAL AGRO" MCHJ, mavsumiy bandlik, yollanma ishchilar, ijtimoiy buyurtma, hamkorlik shartnomasi, homiylik va patronaj, ta'lim sifati, barqaror rivojlanish, ijtimoiy himoya, hududiy taraqqiyot.*

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishida muhim strategik bo'g'in sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar (UNESCO, OECD) ma'lumotlariga ko'ra, bolalarning 3–6 yosh davrida olgan ta'lim-tarbiyasi ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga 60–70 foizgacha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish va teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonlari boshlandi. Natijada, maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi qisqa muddat ichida keskin oshib, qishloq va chekka hududlarda yangi davlat hamda nodavlat MTTlar tashkil etildi. Biroq hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayniqsa chekka va iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarda ta'lim sifatini ta'minlash faqat davlat resurslari hisobiga to'liq hal etilmayapti. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etishni talab etadi.

Ijtimoiy sheriklik — bu davlat, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro manfaatli, mas'uliyatli hamkorligi bo'lib, u ta'lim jarayonini moddiy, ijtimoiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari soni cheklangan hududlarda yagona yirik xo'jalik subyekti bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maktabgacha ta'limni rivojlantirishning muhim manbai bo'lib maydonga chiqadi.

Mazkur tadqiqot chekka hudud sharoitida faoliyat yuritayotgan yagona ishlab chiqarish korxonasi — "OPTIMAL AGRO" MCHJ misolida ijtimoiy sheriklik asosida maktabgacha ta'limni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Ushbu MCHJ dehqonchilik, sug'orish va paxta yetishtirish yo'nalishida faoliyat olib borib, asosan mavsumiy yollanma ishchilar mehnatidan foydalanadi. Bahor, yoz va kuz fasllarida ish bilan band bo'lgan mazkur ishchilar qish faslida vaqtincha ishsiz qoladi, bu holat ularning ijtimoiy barqarorligi, oilaviy daromadi va farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan uzluksiz qamrab olinishi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, mavsumiy bandlik sharoitida ishlovchi ota-onalar farzandlari MTT xizmatlaridan to'liq foydalana olmaydi, qish mavsumida esa bolalarning ta'lim-tarbiyasida uzilishlar yuzaga keladi. Bu esa bolalarda moslashuv muammolari, dastlabki bilim va ko'nikmalarning sust rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan "OPTIMAL AGRO" MCHJ o'rtasida ijtimoiy sheriklikka asoslangan maxsus hamkorlik shartnomalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy ishda ijtimoiy sheriklikning manfaatlar uyg'unligi, uzluksizlik, ijtimoiy mas'uliyat, barqarorlik va hududiy rivojlanishga yo'naltirilganlik prinsiplari asosida MTT va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Xususan, qish faslida yollanma ishchilarni MTT bilan bog'liq yordamchi ishlar, ta'mirlash va obodonlashtirish jarayonlariga jalb etish, bolalar uchun barqaror ta'lim



muhitini yaratish hamda ota-onalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqot chekka hududlarda maktabgacha ta'limni rivojlantirishda ishlab chiqarish korxonalarini bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yishning samarali mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, uning natijalari ta'lim amaliyoti, hududiy ijtimoiy siyosat va barqaror rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

1.MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5198-son Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi va bu sohada tub islohotlar boshlanib, tizimni modernizatsiya qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Ushbu farmonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishda davlat va nodavlat sektor, ish beruvchilar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni kengaytirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi (PF–4947-son Farmon, 2017-yil 7-fevral)da ham ta'lim tizimida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, ayniqsa hududlarda ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlashda xususiy sektor va ishlab chiqarish korxonalarini jalb etish masalalari alohida yo'nalish sifatida belgilandi. Mazkur hujjatga muvofiq, maktabgacha ta'lim bilan qamrovni oshirish, ta'lim sifati va moddiy-texnik bazani mustahkamlash ijtimoiy sherikliksiz to'liq ta'minlanmasligi ta'kidlangan.

2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son Prezident qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning uzoq muddatli strategik yo'nalishlari belgilandi. Konsepsiyada davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi subyektlar bilan hamkorlik qilish orqali MTTlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim vazifa sifatida ko'rsatildi. Ushbu hujjatga ko'ra, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrovni 80 foizdan yuqori darajaga yetkazishda ijtimoiy sheriklik asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrov 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizdan oshdi. Mazkur natijalarga erishishda davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat MTTlar sonining ko'payishi muhim rol o'ynadi. Bu esa ijtimoiy sheriklikning ta'lim tizimidagi samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.



Ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari ****O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637)****da ham mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qonunning tegishli moddalarida ta'lim tashkilotlarining davlat organlari, ish beruvchilar, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa hamkorlar bilan shartnoma asosida faoliyat yuritishi mumkinligi belgilangan. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqarish korxonalari bilan ijtimoiy sheriklik shartnomalarini tuzishning qonuniy asosini yaratadi.

Chekka hududlar sharoitida mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati yanada ortadi. Chunki bunday hududlarda ishlab chiqarish korxonalari soni cheklangan bo'lib, ko'pincha yagona yirik xo'jalik subyekti butun hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, "OPTIMAL AGRO" MCHJ kabi qishloq xo'jaligi yo'nalishida faoliyat yurituvchi korxonalar bilan MTTlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar talablariga to'liq mos keladi.

MAVSUMIY QISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA BOLALARNING MAKTABGACHA TA'LIM BILAN QAMRAB OLINISH MUAMMOSI

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida, xususan, paxta yetishtirish jarayonida bahor, yoz va kuz fasllari eng mehnat talab etuvchi davr hisoblanadi. Amaliy kuzatuvlar va hududiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu davrlarda dehqonchilik ishlarida ayollar mehnatidan keng va uzluksiz foydalaniladi. Jumladan, paxta dalalarida chopiq qilish, yaganalash, chilpish, begona o'tlardan tozalash hamda kuz faslida paxta terimi ishlarining asosiy qismi ayollar zimmasiga to'g'ri keladi.

Mazkur faoliyat turlari mavsumiy bo'lishiga qaramay, kun davomida uzoq vaqt dalada bo'lishni** talab etadi. Natijada, maktabgacha yoshdagi farzandlari bor ayollar uchun bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlariga olib borish va belgilangan vaqtda olib ketish masalasida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Ayniqsa, daladagi ishlar ertalabki soatlardan kechki paytgacha davom etishi, transport masofalarining uzoqligi va ish jadvalining qat'iyligi bolalarni MTTdan o'z vaqtida olish imkoniyatini cheklaydi.

Ushbu holatning ijtimoiy oqibatlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ayrim ota-onalar majburiy ravishda bolalarni vaqtincha bog'chadan chiqarib olishga yoki umuman MTTga olib kelmaslikka majbur bo'ladi. Ikkinchidan, bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida uzilishlar yuzaga kelib, ularning moslashuvchanligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, ayollarning mehnat faoliyati bilan onalik majburiyatlari o'rtasida muvozanat buzilib, bu holat ijtimoiy zo'riqish va stress holatlariga olib keladi.



Aynan shu nuqtai nazardan, paxta yetishtirish jarayonida ayollar bandligi yuqori bo'lgan davrlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida ijtimoiy sheriklikka asoslangan moslashuvchan mexanizmlarni joriy etish zarurati yuzaga keladi. Xususan, mavsumiy ish davrida MTTlarda uzaytirilgan ish vaqti, navbatchi guruhlar yoki qisqa muddatli kechki parvarish xizmatlarini tashkil etish ayollarning daladagi mehnatini samarali davom ettirishiga sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalari (jumladan, "OPTIMAL AGRO" MCHJ) tomonidan MTT faoliyatini moddiy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash, bolalarni vaqtincha parvarish qilish xizmatlarini moliyalashtirish ham ijtimoiy sheriklikning muhim ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat ayollarning mehnat unumdorligini oshiradi, balki bolalarning maktabgacha ta'lim bilan uzluksiz va barqaror qamrab olinishini ta'minlaydi.

MUAMMO

Chekka hududda joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda ishlab chiqarish subyektlari sonining kamligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Hududda yagona faol korxona — "OPTIMAL AGRO" MCHJ bo'lib, uning faoliyati dehqonchilik, sug'orish va paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Korxonada ishchilar mavsumiy tarzda (bahor–yoz–kuz) band bo'lib, qish faslida ish bilan ta'minlanmasligi otalarning daromad barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat MTT tarbiyalanuvchilarining qatnovi, ijtimoiy himoyasi va ta'lim sifati barqarorligiga muayyan xavf tug'dirmoqda.

MAQSAD

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil) hamda Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib, chekka hudud sharoitida mavjud yagona ishlab chiqarish subyekti — "OPTIMAL AGRO" MCHJ bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish, MTT tarbiyalanuvchilari va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

YECHIM (IJTIMOIY SHERIKLIK MEXANIZMI)

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida MTT va "OPTIMAL AGRO" MCHJ o'rtasida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida hamkorlik shartnomasi" tuzish taklif etiladi.

Shartnoma doirasida:

- MCHJ huzurida "Ijtimoiy sheriklik koordinatori"ni belgilash orqali MTT bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish, amalga oshirilayotgan ishlarning uzluksizligini ta'minlash hamda ijtimoiy majburiyatlar ijrosini monitoring qilish;



- Mavsumiy yollanma ishchilar farzandlari uchun MTTga qatnovda imtiyozlar yaratish, jumladan, qish mavsumida to'lovlarni qisman subsidiya qilish yoki MCHJ mablag'lari hisobidan kompensatsiya mexanizmini joriy etish;

- Pedagoglar va ota-onalar uchun qo'shma trening va seminarlar tashkil etish, bunda bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkor munosabat va ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

- "Korxona-MTT-oila" uch tomonlama hamkorlik modelini joriy etish, bunda har bir tomonning huquq va majburiyatlari, moliyaviy va ijtimoiy mas'uliyati shartnomada aniq belgilab qo'yiladi;

- Ijtimoiy sheriklik natijalarini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, jumladan, bolalarning MTT bilan qamrovi, ota-onalar bandligi, MTT moddiy-texnik bazasining yaxshilanish darajasi va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari asosida yillik tahlil o'tkazish;

- Hamkorlik doirasida uzoq muddatli rivojlanish dasturini ishlab chiqish, bunda MTT faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi sohasi bilan integratsiyalashgan ta'lim elementlarini joriy etish hamda hududiy ijtimoiy muammolarni bosqichma-bosqich hal etish nazarda tutiladi.

Mazkur ijtimoiy sheriklik mexanizmi MTT faoliyatining barqarorligini ta'minlash, mavsumiy bandlik bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni yumshatish hamda chekka hududlarda bolalarning maktabgacha ta'lim bilan uzluksiz va sifatli qamrab olinishi uchun samarali amaliy yechim bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chekka hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, ishlab chiqarish korxonalari soni cheklangan hududlarda yagona xo'jalik subyekti bilan yo'lga qo'yilgan tizimli ijtimoiy sheriklik maktabgacha ta'limni rivojlantirishning eng maqbul va barqaror mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy ishda "OPTIMAL AGRO" MCHJ misolida ko'rib chiqilgan ijtimoiy sheriklik modeli shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan, mavsumiy bandlik ustuvor bo'lgan korxonalar bilan MTTlar o'rtasida hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali bir vaqtning o'zida bir nechta muhim masalalarni hal etish mumkin. Xususan, mavsumiy yollanma ishchilarning qish faslida vaqtincha ishsiz qolishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy beqarorlikni kamaytirish, ularning farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan uzluksiz qamrab olish hamda MTT moddiy-texnik bazasini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.



Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari kelgusida maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy sheriklikni yanada chuqurlashtirish, normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda hududiy rivojlanishga yo'naltirilgan barqaror ta'lim modellarini yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son, 2017-yil 30-sentabr. – *O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 2017-y., 30-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral. – *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 2017-y., 1–15-bandlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son, 2019-yil 8-may. – *Rasmiy manba*, 2019-y., II-bob, 7–12-bandlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun O'RQ-637, 2020-yil 23-sentabr. – *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari*, 2020-y., 3-, 5-, 23-moddalar.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish tartibi to'g'risida" №802, 2019-yil 30-sentabr. – *Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami*, 2019-y., 4–9-bandlar.
6. Maktabgacha ta'lim vazirligi. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi holati va rivojlanish istiqbollari" tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023. – 12–18-betlar.
7. UNESCO.
Early Childhood Care and Education: Global Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – pp. 25–34.
8. OECD.
Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris: OECD Publishing, 2017. – pp. 41–52.
9. Abdullayeva M., Rahimov B. *Ta'lim tizimida ijtimoiy sheriklik: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 78–85-betlar.